

## MITRAL QOPQOQCHALARING YETISHMOVCHILIGI.

**Avazova Shohsanam Boymurot qizi**

*Zarmad Universiteti Davolash Ishi*

*2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola yurak kasalliklari bilan og'rigan kasalliklarning bir turi hisoblanuvchi mitral qopqoqning yetishmovchiligi kasalligi, uning kelib chiqish omillari va bu kasalliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy tamoyillar qolaversa, kasallikni davolash jarayoni haqida bir qancha ilmiy amaliy fikrlarni bayon etadi hamda kasallikni davolash borasida eng samarali usullarni tahlil qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Kasallik, Mitral qopqoqchalar, infeksiya, og'riq, sistema, omil, yurak kasalligi, ritm, nafas olish, usul, jarroxlik, stress, funksiya.*

## SOME PROBLEMS OF MITRAL VALVE INSUFFICIENCY

**Abstract:** *This article presents several scientific and practical ideas about Mitral valve insufficiency disease, which is considered a type of heart disease, its causes and the main principles that cause these diseases, as well as the process of treating the disease, and analyzes the most effective methods of treating the disease. does.*

**Key words:** *Disease, Mitral valves, infection, pain, system, factor, heart disease, rhythm, breathing, method, surgery, stress, function.*

## НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ НЕДОСТАТОЧНОСТИ МИТРАЛЬНОГО КЛАПАНА

**Аннотация:** В данной статье представлены несколько научных и практических представлений о недостаточности митрального клапана, считающейся одним из видов заболеваний сердца, ее причинах и основных принципах, вызывающих эти заболевания, а также процессе лечения заболевания, а также анализируются наиболее эффективные методы лечения заболевания.

**Ключевые слова:** Заболевание, Митральные клапаны, инфекция, боль, система, фактор, заболевание сердца, ритм, дыхание, метод, операция, стресс, функция.

Mitral qopqoqchalar yetishmovchiligi - bu qorinchalar sistolasi vaqtida qopqoqcha tabaqalarini to'liq yopilmasligi sababli qonni chap qorinchadan chap bo'l machaga qaytib tushishi bilan kechadi.<sup>75</sup>

**ETIOLOGIYASI.** Mitral qopqoqchalarning ikki turi organik va funksional turi farqlanadi.

<sup>75</sup> E.N.Tashkenboeva "KLINIK KARDIOLOGIYA" ||-TOM 197-bet.

Organik mitral yetishmovchilikda – qopqoqcha tavaqalarini burilishi va qisqarishi, ularda kalsiy tuzlarini to'planishi hamda qopqoq osti tuzilmalarini shikastlanishi xos.

Funksional mitral yetishmovchilikda – qopqoqcha tavaqalarida o'zgarish kuzatilmagan holda, uning tuzilmalari va faoliyatidagi buzilishlar (fibroz halqa so'rg'ichsimon mushaklar) bilan bog'liq.<sup>76</sup>

Mitral qopqoqchalar yetishmovchiligi bilan og'rigan bemorlarning 4% og'ir mitral qopqoqchalar yetishmovchiligi rivojlanib o'z vaqtida jarrohlik yo'li bilan bartaraf etilmasa 24% hollarda o'lim bilan tugashi mumkin. Bunda so'g'ichsimon mushaklar disfunksiyasi yoki ularni uilib ketishi sabab bo'ladi. Aksariyat holatlarda orqa so'rg'ichsimon mushaklar shikastlanadi. Auskultatsiyada mitral qopqoqlarning nisbiy yetishmovchiligi sababli yurak cho'qqisida sistolik shovqin eshitiladi. Tashxis ExoKG yordamida tasdiqlanadi. Oz vaqtida jarrohlik muolajasi o'tkazilmasa kasallikning 24 soatida 50% va 2 oy davomida esa 94% o'lim holati kuzatiladi.<sup>77</sup>

**KLINIKASI.** Mitral qopqoqchalar yetishmovchiliginin kilinik belgilari mitral regulatsiya darajasi, o'pkada qon dimlanishi mavjudligi va chap qorinchani funksional holatiga bog'liq. Revmatizm kasalligi natijasida yuzaga kelgan mitral qopqoqcha yetishmovchiligidagi kasallikning kilinik belgilari uzoq muddat asta-sekin shakillanib boradi.<sup>78</sup>

Ba'zi bemorlarda nuqson uzoq vaqt davomida klinik belgilarni ko'rsatmasligi mumkin, ammo ertami-kechmi uning mavjudligi yurak yetishmovchiligining rivojlanishiga olib keladi. O'z vaqtida davolash bemorlarning chuqur nogironligiga olib keladi – bemorlar nafas qisilishi holda yotoqdan turolmaydilar, shishlarni diuretiklar bilan davolash mumkin emas, yurakning o'ng tomonidagi klapanlarning shikastlanishi paydo bo'ladi. Agar davolanmasa, kasallik uzoq vaqt davom etadi va muqarrar ravishda o'limga olib keladi.<sup>79</sup>

Mitral yetishmovchiligi barcha yurak nuqsonlarini 5-10 % ni tashkil etib, **ayollarga nisbatan erkaklarda biroz ko'proq uchraydi**. Kasallikning asosiy sababi revmatizm (75-85 %) hisoblanadi. Mitral qopqoqchalar yetishmovchiligidagi bemoming tashqi qiyofasi o'zgarmaydi. Ushbu nuqsonda yurakni zarb hajmi pasayganda va o'pka gipertenziyasi shakllanganda akrosianoz (lab, burun uchi, barmoqlar sianozi), ba'zan yonoqlarda yorqin sianotik qizillik (facies mitralis) paydo bo'lishi mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan mitral stenozga xos belgilari (astenik tana tuzilishi, skelet mushaklarini yaxshi rivojlanmasligi, terming kulrang tusdag'i sianozi, jismoniy rivojlanishda orqada qolish) faqat bolalik yoki navqironlik davrda shakllangan mitral yetishmovchiligidagi ham kuzatiladi.<sup>80</sup>

**ETIOLOGIYASI.** Kasallikning asosiy sababi revmatizm (75-85 %) hisoblanadi. Ba'zan unga infeksiyali endokardit, ateroskleroz, biriktiruvchi to'qimaning tizimli kasalliklari

<sup>76</sup> E.N.Tashkenboeva "KLINIK KARDIOLOGIYA" ||-TOM 198-bet.

<sup>77</sup> A.Gadayev "ichki kasalliklar" 323-bet

<sup>78</sup> E.N.Tashkenboeva "KLINIK KARDIOLOGIYA" ||-TOM 202-bet

<sup>79</sup> file:///C:/Users/hp/Downloads/Raxmonov+Otabek+Rasulovich%20(2).pdf

<sup>80</sup> A.G. GADAYEV, D.A.NABIYEVA, A.N.ARIPOV "ICHKI KASALLIKLAR" 288-287-bet

(tizimli qizil volchanka, revmatoid artrit, tizimli sklerodermiya, Lefflemi eozinofilli endokarditi), jarohatlar yoki miokard infarktida kuzatiladigan mitral qopqoqchalarini ushlab turuvchi so'rg'ichsimon mushaklami to'satdan uzilib ketishi ham sabab boiadi.<sup>81</sup>

Irsiy (genetik) mitral qopqoq yetishmovchiligining sabablari xromosoma anomaliyalarining oilaviy tarixi bilan bog'liq. Olingan mitral yetishmovchilikning rivojlanishi ko'pincha quyidagi sabablarga ko'r'a yuzaga keladi:

- o'tkir revmatoid artrit; bu servikal serebrovaskulyar kasallikning rivojlanishining eng keng tarqalgan sababidir;

- yurak ishemiyasi; mitral yetishmovchilikning rivojlanishiga olib keladigan asosiy sabablarning ikkinchisi;

- yuqumli endokardit;

- tizimli kasalliklar (SLE va boshqalar);

- yurak o'smalari (odatda atriyal miksoma); •amiloidoz, sarkoidoz.

### **DAVOLASH USULLARI.**

Mitral qopqoq yetishmovchiligin konservativ davo faqat kasallikning juda erta bosqichlarida yoki operatsiyaga tayyorgarlik ko'rishda amalga oshirilishi mumkin. NMPning asemptomatik surunkali engil shakli uchun maxsus terapiya talab qilinmaydi. Ushbu yurak patologiyasi uchun dori terapiyasi bemorga quyidagi dorilar guruhlarini buyurishni o'z ichiga olishi mumkin:

- yurak tezligini tartibga soluvchi antiaritmik dorilar;

- antiplatelet agentlari, trombotsitlar agregatsiyasini oldini oluvchi preparatlar;

- miyokard tonusini yaxshilaydigan yurak glikozidlari;

- ekstremitalarning shishishini kamaytiradigan diuretiklar

Gemodinamikani barqarorlashtirish uchun bemorga intra-aorta balonli kontrapulsatsiya (maxsus tibbiy nasos yordamida aortaga qon quyish) buyurilishi mumkin.<sup>82</sup>

### **XULOSA:**

Demak, mitral qopqoqchalar yetishmovchiligi o'z navbatida 2 xil bo'ladi: organik va funksional bo'ladi.

Organik o'zgarishda klapanlar bilan bog'liq. Ya'ni klapan tavaqalaridagi o'zgarishlar bo'ladi. Bunda eng asosiy sabab revmatizim hisoblanadi. 60-70% holatlarda revmatizimdan keyin orttirilgan yurak paroklariga olib keladi. Bu yurak paroklari keyinchalik stenoz va klapan yetishmovchiliga ham olib keladi.

Funksional o'zgarishlarda esa klapan aparati uchun xos. Ya'ni bunda klapin tavbaqalari normal holatda bo'ladi. Lekin, klapinlarni tortib turuvchi chordae tendineae, populyar muskullar va fibroz halqalardagi o'zgarishlar tufayli klapan yetishmovchiligi vujudga keladi.

<sup>81</sup> A.G. GADAYEV, D.A.NABIYEVA, A.N.ARIPOV " ICHKI KASALLIKLAR" 285-bet

<sup>82</sup> file:///C:/Users/hp/Downloads/Raxmonov+Otabek+Rasulovich%20(2).pdf

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E.N.Tashkenboeva "KLINIK KARDIOLOGIYA" ||-TOM
2. A.Gadayev "ichki kasalliklar"
3. [file:///C:/Users/hp/Downloads/Raxmonov+Otabek+Rasulovich%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/hp/Downloads/Raxmonov+Otabek+Rasulovich%20(2).pdf)
4. A.G. GADAYEV, D.A.NABIYEVA, A.N.ARIPOV " Ichki kasalliklar"

